


III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi


Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 52 092,0 mlrd. so‘mni yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan 104,3 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 51 099,7 mlrd. so‘mni (104,3 %), o‘rmon xo‘jaligi 868,4 mlrd. so‘mni (103,2 %), baliqchilik xo‘jaligi 123,9 mlrd. so‘mni (108,3 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Qashqadaryo viloyatining ulushi 9,7 % ni tashkil qildi.




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati



**Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va
ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar**




O‘rmon xo‘jaligi



Baliqchilik xo‘jaligi

Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Koson (5 229,6 mlrd. soʻm), Qamashi (4 673,2 mlrd. soʻm) , Kitob (4 484,6 mlrd. soʻm), Kasbi (4 472,2 mlrd. soʻm), Qarshi (3 938,7 mlrd. soʻm), Mirishkor (3 665,8 mlrd. soʻm), Nishon (3 661,9 mlrd. soʻm), Yakkabogʻ (3 622,7 mlrd. soʻm), Chiroqchi (3 409,5 mlrd. soʻm), Gʻuzor (3 323,8 mlrd. soʻm), va Shahrisabz (3 170,4 mlrd. soʻm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qarshi (383,5 mlrd. soʻm) va Shahrisabz shaharlarni (391,0 mlrd. soʻm) keltirib oʻtish mumkin.

Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtirish hajmining xoʻjaliklar toifalari boʻyicha taqsimlanishi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)

Hosil yigʻimi. 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan 663,9 ming tonna sabzavot (2,4 foizga koʻp) yetishtirildi.

2025- yilning yanvar-dekabrida xoʻjalik toifalari boʻyicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

	Fermer xoʻjaliklari		Dehqon va tomorqa xoʻjaliklari		Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	<i>tonna</i>	<i>oʻsish surʻati, foizda</i>	<i>tonna</i>	<i>oʻsish surʻati, foizda</i>	<i>tonna</i>	<i>oʻsish surʻati, foizda</i>

Kartoshka	62766	116,9	162671	91,9	4688	136,2
Sabzavotlar	225048	107,2	422344	99,2	16517	130,1
Poliz	150416	113,0	128585	110,2	7324	154,9
Meva	122023	110,5	85383	101,3	7842	116,1
Uzum	62464	112,0	65713	103,6	3531	121,7




Dehqonchilik


2025- yilning yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 18 294,6 mlrd. soʻmni yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan 109,4 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 36,6 % ni tashkil qildi.

Sabzavotlar


Hajmi, ming tonna



Oʻsish surʻati, % da




Yetishtirilgan mahsulotlarning xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi, % da



- Fermer xoʻjaliklari
- Dehqon va tomorqa xoʻjaliklari
- Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan 663,9 ming tonna sabzavotlar (2024- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 2,4 % ga koʻp) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish koʻrsatkichlarini xoʻjaliklar toifalari boʻyicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 63,6 foizi dehqon va tomorqa xoʻjaliklar hissasiga toʻgʻri kelishini koʻrsatmoqda.

Qashqadaryo viloyati bo'yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna



Chorvachilik

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 31 655,4 mlrd. so'mni yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan 100,6 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 63,4 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko'rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi.

2025 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 347,0 ming tonna go'sht (2024- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 0,3 % ga ko'p), 1394,9 ming tonna sut (1,1 % ga ko'p), 583,8 mln. dona tuxum (0,7 % ga ko'p) va 4637,8 tonna baliq 9,5 % ga ko'p) ovlandi.




2025- yilning yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari

	<i>miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
Go'sht (tirik vaznda), ming tn.	347,0	100,3
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	15,3	116,2
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	322,1	99,2
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9,6	120,9
Sut, ming tn.	1394,9	101,1
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	57,6	110,8


	<i>miqdori</i>	<i>davomi</i> <i>o'sish sur'ati,</i> <i>%</i>
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1319,2	100,4
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	18,1	128,5
Tuxum, mln. dona	583,8	100,7
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	39,9	121,7
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	365,7	102,8
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	178,2	93,2

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati, % da



Yetishtirilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Fermer xo'jaliklari


Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 347,0 ming tonna go'sht (2024- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 0,3 % ga ko'p) yetishtirildi. Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht yetishtirish umumiy hajmidan 92,8 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Qashqadaryo viloyati bo'yicha go'sht (tirik vaznda)



Sut



Yetishtirilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1394,9 ming tonna sut (2024- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 1,1 % ga ko'p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 94,6 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Qashqadaryo viloyati bo'yicha sut yetishtirish hajmi, tonna




Tuxum


Hajmi, mln.dona



O'sish sur'ati, % da



Yetishtirilgan
mahsulotlarning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi, % da



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 583,8 mln.dona tuxum (2024- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 0,7 % ga ko'p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 62,6 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.


● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




Qashqadaryo viloyati bo'yicha olingan tuxum yetishtirish hajmi, ming dona




Baliq


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati, % da




Yetishtirilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 4 637,8 tonna (2024- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 9,5 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 31,0 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.

Qashqadaryo viloyati bo'yicha ovlangan baliq hajmi, tonna




Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2026- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 9,2 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 88,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 11,7 % i fermer xo'jaliklariga, 80,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 7,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 20,1 % i fermer xo'jaliklariga, 72,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 7,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 13,0 % i fermer xo'jaliklariga, 57,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 29,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, % da




Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


- 2026- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:
- yirik shoxli qoramollarning umumiy soni 1 795,6 ming boshga yetdi.
 - yirik shoxli qoramollar bosh soni 2025- yilning 1- yanvariga nisbatan 33,1 ming boshga (1,9 %) ko'paydi.
 - yirik shoxli qoramollar bosh sonining 88,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

Qashqadaryo viloyati bo'yicha yirik shoxli qoramollarning bosh soni, ming bosh




Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, % da



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


2026- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- sigirlarning umumiy bosh soni 598,7 ming boshga yetdi.

- sigirlarning bosh soni 2025- yilning 1- yanvariga nisbatan 15,5 ming boshga (2,7 %) ko'paydi.


- sigirlar bosh sonining 83,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

Qashqadaryo viloyati bo'yicha sigirlarning bosh soni, ming bosh




Qo'y va echkilar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, % da



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari


● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2026- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:


- qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 5 231,9 ming boshga yetdi.
- qo'y va echkilarning bosh soni 2025- yilning 1- yanvariga nisbatan 114,6 ming boshga (2,2 %) ko'paydi.
- qo'y va echkilar bosh sonining 80,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

Qashqadaryo viloyati bo'yicha qo'y va echkilarning bosh soni, ming bosh




Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati, % da



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2026- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:


- otlarning umumiy soni 43 258 boshga yetdi.
- otlar bosh soni 2025- yilning 1- yanvariga nisbatan 4 846 boshga (12,6 %) boshga ko'paydi.
- otlar bosh sonining 72,6 % i dehqon va nomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

Qashqadaryo viloyati bo'yicha otlarning bosh soni, bosh




Parrandalar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, % da



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2026- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- parrandalarning umumiy soni 7 404,6 ming boshga yetdi.
- parrandalar bosh soni 2025- yilning 1- yanvariga nisbatan 329,3 ming boshga (4,7 %) ko'paydi.
- parrandalar bosh sonining 57,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

Qashqadaryo viloyati bo'yicha parrandalarning bosh soni, ming bosh

